<i>Abduhalilova Saidaxon Mavlonbek qizi, Qodirova Odina Djurabayevna</i>	
Tarixiy yondashuvning ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati	610
<i>Abduraxmonov Alibahrom Abdusalomovich</i>	
Developing Students' Speaking Skills in English Language Lessons	613
<i>Alamuratov Elyor Umarali ugli</i>	
Jahon psixologiyasida hayotga nisbatan bardoshlilikni ilmiy tadqiq etilishi	617
<i>Alimov O'limasjon Ismatovich</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish	621
<i>Axmedova Nasibaxon Kobiljonovna</i>	
Aholiga sifatli psixologik xizmat ko'rsatishda ilmiy asoslangan psixoterapiyalarning o'rni	624
<i>Bilolova Zamira Baxtiyarovna</i>	
Qadimgi Naxshabning diniy me'morchiligi: Yerqo'rg'on ibodatxonasi misolida	629
<i>Eshmurodova Marjon Eshmurod qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv rivojlanishni ta'minlovchi o'yin muhitining imkoniyatlari	633
<i>Fozilova Odina Nabiyevna</i>	
Oliy ta'lim muassasasi talabalarining kasbiy shakllanishini psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash xususiyatlari	636
<i>I. I. Xalilov</i>	
Modern Teaching Methods Based on Educational Technologies	640
<i>Kirgizov Ismat</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda mustaqil ishlar tizimi	644
<i>Madraimova Halima G'ayrat qizi</i>	
Ingliz tili darslarida madaniyatlararo kommunikatsiya va axborot almashish kompetensiyalarini rivojlantirishda interaktiv usullar	648
<i>Olimxon Isaqov Odiljanovich</i>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy kompetentligini rivojlantirish zamonaviy texnologiyalari	652
<i>Rustamjonov Shoxruxbek Akmaljon o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarini maktabga tayyorlashda fiziologik rivojlanish va biologik atamalarning qo'llanilish xususiyatlari.....	656
<i>Ruziyeva Gulsara Temirqulovna</i>	
STEAM ta'lim texnologiyasini maktabgacha ta'limida qo'llash bo'yicha xorijiy tajribalar	662
<i>Saidova Nigora Olimovna, Pirmatova Zaynabxon Elmurod qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda raqamli texnologiyalar orqali bolalarda mantiqiy va ijodiy rivojlanishni kengaytirish	665
<i>N. O. Saidova, Tojaliyeva Shahrizoda</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining harakat faoliyatini jismoniy vositalari orqali optimallashtirish masalalari	669
<i>Sarimsaqova Bashorat Muhammad qizi</i>	
Talabalarni axborot ta'lim muhitida kasbiy kompetentligini boshqarishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	673
<i>Shoimov Anvar Mamarizayevich, Tojiyeva Iroda Sadatovna, Shodiyeva Guliston Temirovna</i>	



Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda pedagogik metod va o'yinlarning samaradorligi	677
Suyarova Orzigul Sodiq qizi	
Ta'lim jarayonida talabalardagi stress holatlarini bartaraf etishning psixologik xususiyatlari.....	681
Toshpulatov Akmal A'zamjon o'g'li, Dumarov Mashhurbek	
Maktabgacha ta'lim faoliyat markazlarida ta'lim jarayonini davlat dasturi asosida modernizatsiya qilish ...	685
Ubaydullayeva Ra'no Furqat qizi	
The Role of STEAM Technologies in Teaching English.....	689
Umida Raimjanovna Irgasheva	
Talabalar mobilligi jarayonida pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari.....	693
Xabibullayev Alimardon Xidoyatillayevich	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglari o'rtasida metodik kollaboratsiyani boshqarish mexanizmini takomillashtirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar majmuasi va unda qo'llaniladigan metodlar	698
Xamrayeva Gulnoz Israilovna	
Migratsiya sharoitida yoshlar tarbiyasi: pedagogik risklar va ularning kelib chiqish sabablari	704
Xaydarov Sulaymon Amirqulovich	
Отношение к телу и фитнес-практикам как фактор социально-психологического благополучия женщин	708
Дехконбоева Зулайхо Дилшод қизи	
Masofaviy o'qitish kompetensiyasi uchun shart-sharoitlarning samaradorligini tekshirish bo'yicha eksperimental ish.....	712
Musamedova Kamola Abdulxaqovna, Xalikov Abdulxaq Abdulxairovich	
Masofaviy ta'limning oxirgi besh yil davridagi rivojlanish bosqichlarining tahlili.....	719
Musamedova Kamola Abdulxaqovna, Ibragimova Ozoda Abdulxakovna	
Информированность педагогов ДОО о психофизиологических особенностях и здоровье детей в инклюзивном образовательной среде	723
Намазбаева Лола Закировна	



TALABALAR MOBILLAGI JARAYONIDA PEDAGOGIK QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI

Xabibullayev Alimardon Xidoyatillayevich
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola talabalar mobilligi jarayonida pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining nazariy va amaliy jihatlarini tizimli tahlil qiladi. Talabalar xalqaro va ichki akademik almashinuvlarda duch keladigan psixologik, ijtimoiy va akademik qiyinchiliklar samarali pedagogik strategiyalar orqali yengib o'tilishi mumkinligi ko'rsatildi. Tadqiqot doirasida qo'llab-quvvatlashning institutsional, metodik va interfaol shakllari, shuningdek mentorlik tizimi, psixologik maslahat xizmatlari hamda raqamli platformalar orqali pedagogik yordam mexanizmlari o'rganildi. Shuningdek, maqolada rivojlangan davlatlar tajribasi asosida pedagogik qo'llab-quvvatlashning samaradorligini oshirish strategiyalari ham taqdim etildi. Olingan natijalar talabalarning mobil imkoniyatlardan to'liq foydalangan holda shaxsiy va akademik rivojlanishini ta'minlashda pedagogik mexanizmlarning ahamiyatini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: talabalar mobilligi, pedagogik qo'llab-quvvatlash, mentorlik, psixologik maslahat, institutsional mexanizmlar, akademik rivojlanish, rivojlangan davlatlar tajribasi.

Abstract: This article provides a systematic analysis of the theoretical and practical aspects of pedagogical support mechanisms in the process of student mobility. It demonstrates that psychological, social, and academic challenges encountered by students during international and domestic academic exchanges can be effectively overcome through pedagogical strategies. The study examines institutional, methodological, and interactive forms of support, including mentoring systems, psychological counseling services, and pedagogical support mechanisms via digital platforms. Furthermore, the article presents strategies to enhance the effectiveness of pedagogical support based on the experience of developed countries. The findings confirm the importance of pedagogical mechanisms in ensuring students' personal and academic development while fully utilizing mobility opportunities.

Key words: student mobility, pedagogical support, mentoring, psychological counseling, institutional mechanisms, academic development, experience of developed countries.

Аннотация: В данной статье проводится системный анализ теоретических и практических аспектов педагогических механизмов поддержки в процессе мобильности студентов. Показано, что психологические, социальные и академические трудности, с которыми сталкиваются студенты в рамках международного и внутреннего академического обмена, могут быть преодолены с помощью эффективных педагогических стратегий. В исследовании изучены институциональные, методические и интерактивные формы поддержки, включая систему наставничества, психологические консультационные службы и педагогические инструменты через цифровые платформы. Кроме того, в статье представлены стратегии повышения эффективности педагогической поддержки на основе опыта развитых стран. Полученные результаты подтверждают важность педагогических механизмов для обеспечения личного и академического развития студентов при полном использовании ими мобильных возможностей.

Ключевые слова: мобильность студентов, педагогическая поддержка, наставничество, психологические консультации, институциональные механизмы, академическое развитие, опыт развитых стран.

KIRISH

Globalizatsiya jarayonining tezkor rivojlanishi va ta'lim tizimlarining transmilliy xarakteri zamonaviy oliy ta'lim muassasalarini talabalar mobilligi masalasini yangi pedagogik paradigmalar doirasida ko'rib chiqishga majbur qilmoqda ^[1]. Talabalar mobilligi nafaqat malaka va bilim almashinuvi, balki talabalarning shaxsiy, psixologik va ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari talabalar mobilligi jarayonida markaziy o'rin tutib, ularning akademik muvaffaqiyati, adaptatsiyasi hamda innovatsion faoliyatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Pedagogik qo'llab-quvvatlashni institutsional va metodik jihatdan tizimli o'rganish talabalar mobilligi jarayonida yuzaga keladigan murakkabliklarni aniqlash va ularni samarali yengib o'tish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi [2].

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, mobil talabalar uchun mentorlik tizimi, psixologik maslahat xizmatlari, akademik va madaniy integratsiya dasturlari hamda raqamli platformalar orqali tashkil etilgan interaktiv pedagogik yordam mexanizmlari yuqori samaradorlikka ega. Bu esa, o'z navbatida, talabalarning shaxsiy va kasbiy rivojlanish maqsadlariga erishishini qo'llab-quvvatlaydi. Pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini samarali tashkil etishning nazariy asoslari bir qator konseptual yondashuvlar orqali izohlanadi. Jumladan, Vygotskiy nazariyasi va uning "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi pedagogik yordamning talabalarning o'quv faoliyatini optimallashtirishdagi rolini ilmiy jihatdan asoslaydi [3].

Shu bilan birga, Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasi talabalar mobilligi jarayonida peer-mentorlik hamda interaktiv o'quv metodlarini qo'llashning samaradorligini ko'rsatadi. Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi esa talabaning akademik va ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'sirini tahlil qilish imkonini berib, pedagogik qo'llab-quvvatlashning individual va institutsional darajadagi mexanizmlarini aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, talabalar mobilligi jarayonida pedagogik qo'llab-quvvatlashning kompleks xususiyatini hisobga olish muhimdir [4].

Ushbu qo'llab-quvvatlash nafaqat akademik yordamni, balki psixologik maslahat, ijtimoiy integratsiya, madaniy adaptatsiya, shaxsiy rivojlanish hamda kasbiy maqsadlarni amalga oshirishni ham qamrab oladi. Xususan, Erasmus+ dasturi doirasida talabalarning Yevropaning turli oliy ta'lim muassasalariga amalga oshiradigan akademik safarlari davomida yuzaga keladigan madaniy va lingvistik qiyinchiliklar mentorlik tizimlari va raqamli pedagogik platformalar orqali samarali yengib o'tilmoqda [5].

Talabalar mobilligi jarayonida pedagogik qo'llab-quvvatlash samaradorligini oshirishning yana bir muhim jihati institutsional hamkorlik va resurslarni integratsiyalashgan tarzda taqdim etish bilan bog'liq. Universitetlar o'rtasidagi hamkorlik shartnomalari, xalqaro akademik dasturlar, raqamli platformalar va onlayn konsalting xizmatlari talabalarning mobil tajribasini boyitib, ularning shaxsiy va akademik rivojlanish darajasini oshiradi. Shu bois, pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari nafaqat individual talabalar uchun, balki ta'lim muassasalarining strategik rivojlanishi hamda xalqaro reytinglardagi raqobatbardoshligini ta'minlash uchun ham muhim omil sifatida qaraladi [6].

Maqola doirasida pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini tizimli yondashuv asosida o'rganish, rivojlangan davlatlar tajribasini tahlil qilish va ularni O'zbekiston sharoitida tatbiq etishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish maqsad qilinadi. Shu orqali talabalar mobilligi jarayonida yuzaga keladigan psixologik, ijtimoiy va akademik muammolarni aniqlash hamda ularni samarali hal etish bo'yicha ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Talabalar mobilligi jarayonida pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlariga bag'ishlangan xalqaro ilmiy tadqiqotlar mazkur masalaning nazariy asoslarini shakllantiradi. Jumladan, Knight talabalar mobilligi va qo'llab-quvvatlash tizimlarini tahlil qilgan tadqiqotida mobil talabalar uchun interaktiv pedagogik yordamning akademik muvaffaqiyat va ijtimoiy adaptatsiyaga ta'sirini chuqur o'rganadi. Knightning tadqiqotlarida mentorlik tizimi, psixologik maslahat xizmatlari hamda peer-learning mexanizmlari talabalar o'qish jarayonida yuzaga keladigan madaniy va psixologik qiyinchiliklarni yengishda muhim rol o'ynashi asoslab berilgan [7].

Bundan tashqari, Teichler oliy ta'limda talabalar mobilligi va pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligini tizimli ravishda tahlil qilgan. Uning tadqiqotlarida transmilliy akademik dasturlar doirasida talabalarning shaxsiy va akademik rivojlanishini ta'minlash uchun institutsional strategiyalar hamda interaktiv qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyati yoritilgan. Teichlarning ilmiy ishlarida mobil talabalarni akademik, psixologik va madaniy jihatdan qo'llab-quvvatlashning kompleks tizimi universitetlarning xalqaro integratsiya darajasi va talabalarning muvaffaqiyati bilan uzviy bog'liq ekanligi ko'rsatib berilgan [8].

Mazkur olimlarning tadqiqotlari talabalarning mobil tajribasida pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining markaziy rolini tasdiqlaydi. Knight va Teichler ishlarining o'zaro uzviyligi shundan iboratki, ular talabalar mobilligi jarayonida individual va institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini bir-birini to'ldiruvchi yaxlit tizim sifatida talqin etadi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari nafaqat talabaning akademik rivojlanishini, balki madaniy adaptatsiya, ijtimoiy integratsiya va shaxsiy o'sishni ta'minlovchi muhim strategiya sifatida qaraladi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada talabalar mobilligi jarayonida pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini o'rganish uchun kompleks va integratsiyalangan tadqiqot metodologiyasi qo'llanildi. Tadqiqot metodlari nazariy va amaliy yondashuvlarni birlashtirib, talabalar mobilligi jarayonidagi individual hamda institutsional qo'llab-quvvatlash samaradorligini tizimli tahlil qilish imkonini berdi. Empirik ma'lumotlarni yig'ish uchun strukturalangan so'rov-nomalar va yarim strukturalangan intervyular qo'llanildi, bu esa talabalarning mobil tajribasi davomida duch kelgan psixologik, akademik va ijtimoiy qiyinchiliklarni aniqlashga yordam berdi. Shu bilan birga, talabalarning mobil dasturlarga adaptatsiyasi va pedagogik yordam samaradorligini baholashda kvantitativ hamda sifatlil tahlil usullari uyg'unlashtirildi. Shuningdek, taqqoslovchi tahlil metodologiyasi rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganishda qo'llanildi. Ushbu metod yordamida universitetlar o'rtasidagi pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimlari, mentorlik dasturlari, interaktiv platformalar va psixologik maslahat xizmatlarining samaradorligi taqqoslandi hamda ularning talabalarning akademik va shaxsiy rivojlanishiga ta'siri ilmiy asosda aniqlandi.

Case-study metodologiyasi esa konkret oliy ta'lim muassasalari va mobil dasturlar doirasida qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini chuqur tahlil qilish imkonini berdi, bu orqali har bir mexanizmning talabalar muvaffaqiyatiga sezilarli hissa qo'shishi tasdiqlandi. Shuningdek, tadqiqotda triangulyatsiya yondashuvi qo'llanilib, ya'ni bir nechta metodlarning kombinatsiyasi orqali ma'lumotlar ishonchligi va natijalar validligi ta'minlandi. Ushbu yondashuv pedagogik qo'llab-quvvatlashning turli darajalardagi – individual, guruh va institutsional – ta'sirini kompleks baholash imkonini berdi. Bundan tashqari, metodologiyada longitudinal monitoring ham qo'llanilib, talabalarning mobil tajribasi davomida qo'llab-quvvatlash mexanizmlariga bo'lgan reaksiyasi va rivojlanish dinamikasi o'rganildi. Natijada, maqolada qo'llanilgan metodlar pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligini to'liq va tizimli baholash, rivojlangan davlatlar tajribasini tatbiq etish hamda O'zbekiston kontekstida optimal strategiyalarni ishlab chiqish imkonini yaratdi.

Tadqiqot metodologiyasi talabalarning akademik muvaffaqiyati, ijtimoiy integratsiyasi va shaxsiy rivojlanishiga pedagogik qo'llab-quvvatlashning uzviy ta'sirini aniqlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalar mobilligi jarayonida pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari talabaning akademik muvaffaqiyati, madaniy adaptatsiyasi va ijtimoiy integratsiyasiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Empirik ma'lumotlar va intervyular tahlili shuni aniqladiki, mentorlik tizimi orqali taqdim etilgan shaxsiy maslahatlar hamda akademik yo'naltirishlar talabalarning o'quv faoliyatini samarali boshqarishga, o'z-o'zini tartibga solish va o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, peer-learning va guruh ishlari orqali interaktiv pedagogik yondashuv talabalarning ijtimoiy integratsiyasini kuchaytiradi hamda madaniy moslashuv jarayonini sezilarli darajada yengillashtiradi. Bundan tashqari, raqamli platformalar va onlayn konsalting xizmatlari orqali pedagogik qo'llab-quvvatlashning doimiy va uzluksiz shakli ta'minlanadi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, raqamli resurslar orqali taqdim etilgan interaktiv qo'llab-quvvatlash talabalarning akademik o'zlashtirish jarayonini tezlashtiradi va ularning bilimlarini mustaqil ravishda rivojlantirishiga imkon beradi. Shu bilan birga, talabalarning psixologik maslahat xizmatlaridan foydalanishi ularning stress va adaptatsiya bilan bog'liq muammolarini kamaytiradi, bu esa mobil tajribani yanada samarali va xavfsiz qiladi. Rivojlangan davlatlar tajribasiga tayanib o'rganilganda, pedagogik qo'llab-quvvatlashning institutsional va individual shakllarini uyg'unlashtirish talabalarning muvaffaqiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlanadi.

Knight va Teichler tadqiqotlarida keltirilgan natijalar shuni tasdiqlaydiki, individual mentorlik yondashuvi va institutsional resurslarni integratsiyalashgan holda qo'llash talabalarning akademik va shaxsiy rivojlanishiga maksimal ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari talabalar mobilligi jarayonining barcha bosqichlarida – dastlabki adaptatsiya, akademik faoliyat va madaniy integratsiya davrlarida – samarali qo'llanilganda, talabalarning mobil tajribasi yanada boy, samarali va psixologik jihatdan xavfsiz bo'lishini ko'rsatdi. Shu bilan birga, qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi talabaning shaxsiy motivatsiyasi, o'z-o'zini boshqarish qobiliyati va interaktiv faoliyatga bo'lgan qiziqishi bilan ham uzviy bog'liq ekanligi aniqlandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining tizimli va kompleks qo'llanilishi nafaqat talabaning akademik muvaffaqiyatini oshiradi, balki madaniy adaptatsiya va ijtimoiy moslashuv jarayonlarini ham samarali ta'minlaydi, shuningdek, talabaning shaxsiy va professional rivojlanish strategiyalarini qo'llab-quvvatlaydi.

Talabalar mobilligi jarayonida pedagogik qo'llab-quvvatlashning samaradorligi masalasida Knight va Teichler o'rtasida ilmiy polemika mavjud. Knight o'z tadqiqotlarida mobil talabalarni qo'llab-quvvatlashda

mentorlik tizimi va interaktiv pedagogik strategiyalarning markaziy ahamiyatini ta'kidlaydi, chunki uning fikricha, talabaniing psixologik va ijtimoiy moslashuvi, shuningdek, akademik muvaffaqiyati mentorlik va peer-learning mexanizmlariga bevosita bog'liq ^[9].

U rivojlangan davlatlar tajribasini misol qilib, universitetlarning individual talabalarga yo'naltirilgan qo'llab-quvvatlash tizimi mobil talabalar adaptatsiyasini sezilarli darajada yaxshilashini ko'rsatadi. Knight tadqiqotlarida pedagogik yordam mexanizmlarining shaxsiylashtirilgan yondashuv orqali talabaniing o'z-o'zini boshqarish va mustaqil o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishga hissa qo'shishi alohida ta'kidlanadi. Boshqa tomondan, Teichler pedagogik qo'llab-quvvatlashni tizimli va institutsional kontekstda ko'rib chiqadi. U nazariy jihatdan interaktiv metodlar va mentorlik tizimlarini samarali deb hisoblash bilan birga, talabaniing muvaffaqiyati ko'proq universitetlararo hamkorlik, resurslarni integratsiyalash va xalqaro strategik dasturlar bilan bog'liqligini ta'kidlaydi.

Teichler fikricha, pedagogik qo'llab-quvvatlash faqat individual darajada emas, balki institutsional mexanizmlar orqali amalga oshirilganda samarali bo'ladi, chunki bu talabaga madaniy va akademik integratsiyani kompleks tarzda ta'minlaydi. Ushbu ilmiy munozarada ko'rinib turibdiki, Knight individual yondashuv va mentorlik tizimini markaziy deb hisoblab, pedagogik qo'llab-quvvatlashning subyektiv, talaba-markazli bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi, Teichler esa tizimli, institutsional va strategik yondashuvni ustun qo'yadi ^[10].

Shu nuqtai nazardan, pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari nafaqat individual, balki institutsional darajada integratsiyalangan holda qo'llanilishi lozimligi ilmiy jihatdan tasdiqlanadi. Ushbu munozaralar talabalarining mobil tajribasini samarali qo'llab-quvvatlash uchun pedagogik strategiyalarni ikki yo'nalishda uyg'unlashtirishni talab qiladi: bir tomondan, talabaniing individual ehtiyojlarini qondirish, boshqa tomondan esa institutsional resurslar va strategiyalarni kompleks ravishda integratsiyalash. Shu tariqa pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari talabalarining akademik muvaffaqiyati, ijtimoiy integratsiyasi va shaxsiy rivojlanishiga maksimal ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA

Ushbu maqola talabalar mobilligi jarayonida pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining nazariy, metodologik va amaliy jihatlarini tizimli hamda kompleks yondashuv asosida o'rganishga bag'ishlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalar mobilligi jarayonida yuzaga keladigan akademik, psixologik va ijtimoiy qiyinchiliklarni yengishda pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari markaziy rol o'ynaydi. Mentorlik tizimi, psixologik maslahat xizmatlari, interaktiv pedagogik metodlar, raqamli platformalar va peer-learning strategiyalari talabalarining shaxsiy hamda akademik rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, shu bilan birga madaniy adaptatsiya va ijtimoiy integratsiyani ham ta'minlaydi.

Ilmiy manbalarni tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, Knight va Teichler tadqiqotlaridagi ilmiy munozaralar pedagogik qo'llab-quvvatlashning ikki asosiy jihatini – individual yondashuv va institutsional tizimni uyg'unlashtirish zarurligini tasdiqlaydi. Knight individual talabaniing ehtiyojlari va psixologik moslashuviga urg'u bersa, Teichler institutsional resurslar, strategik dasturlar hamda universitetlararo hamkorlikni asosiy omil sifatida baholaydi. Ushbu ikki yondashuvning uyg'unligi pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada samarali qiladi, chunki u talabaniing akademik va shaxsiy rivojlanishiga kompleks hissa qo'shadi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, mobil talabalar uchun mo'ljallangan pedagogik qo'llab-quvvatlash dasturlari muvaffaqiyatli amalga oshirilganda, talabalar o'z bilim va ko'nikmalarini nafaqat o'z mamlakatlarida, balki xalqaro darajada ham samarali qo'llay oladi. Shu bilan birga, pedagogik qo'llab-quvvatlashning institutsional va metodologik integratsiyasi talabalar mobilligi jarayonining sifatini oshiradi, ularning madaniy adaptatsiyasi va ijtimoiy moslashuvini kuchaytiradi hamda shaxsiy va professional o'sishini rag'batlantiradi. Maqolada ta'kidlanganidek, pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini samarali tashkil etish uchun universitetlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, interaktiv va raqamli platformalardan foydalanish, mentorlik tizimini rivojlantirish hamda psixologik va ijtimoiy maslahat xizmatlarini tizimli ravishda yo'lga qo'yish zarur. Shu orqali talabalar nafaqat o'quv jarayonida, balki madaniy, ijtimoiy va kasbiy sohalarida ham barqaror muvaffaqiyatga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alimov J. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini o'quv dasturi asosida takomillashtirish // Nordic_Press. – 2025. – T. 7. – № 0007.
2. Kenjaboyev A., Kenjaboyeva D. Pedagogik deontologiya va kompetentlik. Termiz: Surxon-nashr nashriyot-matbaa, 2022.
3. Ximmataliyev D. O., Usarboyeva D. U. Talabalarining akademik mobilligini shakllantirish mexanizmlarini rivojlantirish // МУФАЛЛИМ ҲӨМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ. – 2024. – Т. 1. – № 1. – В. 154–158.



4. Isaqulova B. Ta'lim sifatini oliy ta'lim tashkilotlarida yaxshilashda til bilishning o'rni // Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. – 2025. – T. 3. – № 6.
5. Mingboyeva T. Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonida akademik mobillik modelini joriy etish texnologiyasi // Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – № 5. – B. 1385–1388.
6. Kuldashev S. Oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimini qo'llashning ahamiyati // Nordic_Press. – 2025. – T. 7. – № 0007.
7. Hakimov S. Ta'lim jarayoniga xalqaro pedagogik tajribani samarali joriy etish: usullar va yondashuvlar // Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. – 2025. – T. 3. – № 11.
8. Saitkulova N., Suleymanova N. K. Akademik mobillik borasidagi muammolar va ularning yechimlari // Materiallari to'plami. – 2023. – B. 65.
9. Nosirova D. Oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etishning ustuvor jihatlari // Журнал математики и информатики. – 2021. – Т. 1. – № 3.
10. Ismailov T., Abdulakimov A. Talabalar amaliyotida xalqaro almashinuv dasturlari: Erasmus+, DAAD, Fulbright // Наука и технология в современном мире. – 2025. – Т. 4. – № 5. – В. 8–13.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.